

**TIBBIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR: ZAMONAVIY TALABALARDA
SOG'LIQNI SAQLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH**

Isaqova Gavharshod Bahodir qizi

Toshkent Tibbiyot Universiteti 1-son davolash fakulteti talabasi

gavharshodisaqova03@gmail.com

Xo'jaqulov Inomjon G'ulom o'g'li

Toshkent Tibbiyot Universiteti 1-son davolash fakulteti talabasi

inomjonoken05@gmail.com

Bahodirova Zulfiya Bahodir qizi

Toshkent Tibbiyot Universiteti 2-son stomatologiya fakulteti talabasi

zulfiya.bahodirovna0806@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada tibbiy pedagogik yondashuvlarning zamonaviy talabalarda sog'liqni saqlash madaniyatini shakllantirishdagi roli o'rganildi. Interaktiv va innovatsion metodlar yordamida talabalar salomatligini yaxshilashga qaratilgan samarali yondashuvlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari pedagogik jarayondagi o'zgarishlarning ahamiyatini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: tibbiy pedagogika, sog'liq madaniyati, talaba, interaktiv metodlar, profilaktika

Аннотация: В статье изучается роль медицинско-педагогических подходов в формировании культуры здоровья у современных студентов. Проанализированы эффективные методы, направленные на улучшение здоровья студентов с помощью интерактивных и инновационных подходов. Результаты исследования подчеркивают важность изменений в педагогическом процессе.

Ключевые слова: медицинская педагогика, культура здоровья, студент, интерактивные методы, профилактика

Abstract : The article investigates the role of medical pedagogical approaches in shaping health culture among modern students. Effective methods aimed at improving student health through interactive and innovative approaches were analyzed. The research results highlight the importance of changes in the pedagogical process.

Keywords: medical pedagogy, health culture, student, interactive methods, prevention

Kirish

Sog‘liqni saqlash madaniyati shaxsning o‘z salomatligini asrash va mustahkamlashga doir bilim, ko‘nikma va qadriyatlar majmuasini anglatadi. Ayniqsa, tibbiy ta‘lim oluvchi talabalar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Zamonaviy tibbiy pedagogika bu jarayonda interaktiv va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali talabalarning salomatlik madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Maqolada tibbiy pedagogik yondashuvlar yordamida talabalarda sog‘liqni saqlash madaniyatini shakllantirishning samaradorligi o‘rganildi.

Metodlar

Tadqiqot 2024–2025 o‘quv yili davomida Toshkent Tibbiyot Akademiyasining 2–4-kurs talabalari orasida o‘tkazildi. Buning uchun 30 nafar talaba tanlab olindi.

30 nafar talaba tasodifiy tarzda ikkiga bo‘lingan. Ulardan 15 ta talaba interaktiv metodlar qo‘llanilgan eksperiment guruhi, qolgan 15 ta talaba nazorat guruhi.

Esperimental guruhga sog‘lom turmush tarzi, gigiyena, ovqatlanish madaniyati, stressni boshqarish kabi yo‘nalishlarda 4 hafta davomida treninglar, ma‘ruzalar va interaktiv mashg‘ulotlar tashkil etildi. Nazorat guruhi odatiy o‘quv dasturi asosida tahsil oldi.

Ma‘lumot to‘plash uchun so‘rovnoma, kuzatuv, pedagogik treninglar o‘tkazildi. Sog‘liq madaniyati indikatorlari tahlili SPSS dasturida amalga oshirildi.

Natijalar:

Eksperiment guruhi o‘rtasida sog‘liq madaniyati indikatorlarida sezilarli o‘sish kuzatildi ($p < 0,01$):

- Gigiyena odatlari: 64% → 89%
- Stressni boshqarish ko‘nikmalari: 48% → 77%
- Sog‘lom ovqatlanish: 53% → 81%
- Umumiy sog‘liq madaniyati indeksi: 52,1% → 84,3%

Nazorat guruhida o‘zgarishlar statistik ahamiyatga ega bo‘lmadi.

Indikatorlar	Eksperiment guruhi (boshlang‘ich %)	Eksperiment guruhi (yakuniy %)	Nazorat guruhi (boshlang‘ich %)	Nazorat guruhi (yakuniy %)
Gigiyena odatlari	64	89	63	65
Stressni boshqarish ko‘nikmalari	48	77	50	52

Sog‘lom ovqatlanish	53	81	55	57
Umumiy sog‘liq madaniyati indeksi	52,1	84,3	51,9	53

Muhokama

Interaktiv va innovatsion pedagogik yondashuvlar talabalar orasida sog‘liq madaniyatining oshishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Ushbu metodlar amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, talabalarning o‘z salomatligiga bo‘lgan mas‘uliyatini kuchaytirishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar va individual yondashuvlar ta‘lim jarayonini samaraliroq qiladi.

Xulosa

Tibbiy pedagogik yondashuvlar zamonaviy talabalarda sog‘liqni saqlash madaniyatini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuvlarni oliy ta‘lim muassasalarida keng joriy qilish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Health Organization. Health promotion in universities. Geneva, 2023.
2. Azizov Sh. Tibbiy pedagogika asoslari. Toshkent, 2021.
3. Xolmatova D. va boshq. Interaktiv metodlar va sog‘liq madaniyati. Tibbiyot va ta‘lim, 2022;4:45–49.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4963-sonli qarori, 2021.
5. Karimova D.X. Tibbiy ta‘limda zamonaviy texnologiyalar. TTA maqolalari, 2023.
6. Anderson M. Digital Health Education: Review. JAMA, 2021;325(10):1053–1060.
7. Toshmatova N. Sog‘lom turmush tarzi va oliy ta‘lim. Ilm, fan va innovatsiya, 2024;1:13–17.
8. SPSS for Beginners. IBM Corp., 2021.